


# Namangan viloyati statistika boshqarmasi


## 2018 yil yanvar-mart oylarida QURILISH ISHLARI

Joriy yilning yanvar-mart oylarida viloyatda 309,4 mlrd. so'mlik qurilish-montaj ishlari bajarilib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 105,6 foizni tashkil etdi.

Shuningdek, yirik pudrat tashkilotlari tomonidan qurilish ishlari hajmi 12,2 mlrd. so'mni yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 145,0 foizni, kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan 195,5 mlrd. so'mlik qurilish-montaj ishlari bajarilib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 102,9 foizni va norasmiy sektorlar tomonidan esa 101,7 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 107,5 foizni tashkil etdi.



### 2018 yil yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari hajmining o'sish sur'ati %da




#### Qurilish hajmining eng yuqori darajasi quyidagi hududlarda kuzatildi:

- Namangan shahrida (81,0 mlrd.so'm yoki 115,4 %) – ko'p qavatli turar-joylar qurilishi, maktab, maktabgacha ta'lim muassasasi hamda sog'liqni saqlash ob'ektlarini kapital ta'mirlash, rekonstruksiya qilish;
- Uychi tumanida (30,9 mlrd.so'm yoki 126,0 %)-Uychi tumanida ko'priq qurilishi, avtomobil yo'llarini kapital ta'mirlash;
- Yangiqo'rg'on tumanida (18,7 mlrd.so'm yoki 141,5 %)- Yangiqo'rg'on hududida avtomobil yo'llarini kapital ta'mirlash hamda kichik biznes sub'ektlari tomonidan issiqxonalar qurish hisobiga amalga oshirildi;
- Norin tumanida (20,9 mlrd.so'm yoki 143,1 %)- Norin tumani hududida avtomobil yo'llarini kapital ta'mirlash hamda kichik biznes sub'ektlari tomonidan bajarilgan ishlar hisobiga amalga oshirildi;

Shu bilan birga, o'tgan yilning mos davriga nisbatan qurilish ishlari hajmining kamayishi Uchq'o'rg'on tumanida - 75,8% (10,4 mlrd.so'm), Chortoq tumanida – 89,7% (16,7 mlrd.so'm), To'raqo'rg'on tumanida-64,9% (14.2 mlrd.so'm) qayd etildi.

**2018 yilning yanvar-mart oylarida qurilish ishlari umumiy hajmida hududlarning ulushi (umumiy hajmga nisbatan %da)**



Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlarining katta qismi Namangan shahrida bajarilgan bo`lib, viloyatda bajarilgan jami qurilish ishlarining 26,2 %ini tashkil etdi, Namangan tumanida 14,1 %ni, Uychi tumanida bajarilgan qurilish ishlari esa 10,0 %ni, tashkil etdi.

Viloyatda amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi bo`yicha past ko`rsatkichlar: Mingbuloq tumanida bu ko`rsatkich eng past 3,0 % ni tashkil etdi. Shuningdek, Uchqo'rg'on tumanida 3,4 % ni , Pop tumanida ushbu ko`rsatkich 6,2 % ni tashkil etganligini kuzatishimiz mumkin.



Qurilish ishlari mavsumining boshlanishi bilan hududlarda bajariladigan qurilish ishlarining hajmi ortib, ularning viloyatdagi ulushi ham o`zgarib boradi.



## Mulkchilik shakllari


### Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari

Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 293,3 mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining 94,8 foizini tashkil qildi va ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,5 foiz punktga kamaydi.





## IQTISODIY FAOLIYAT TURLARI



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi o'tgan yilga nisbatan kamaygan.